

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH DARSLARIDA BOLA NUTQINI O'STIRISH BORASIDA METODIK TAVSIYA

*Erqo'ziyeva Nargiza Axmadjanovna*

*Toshkent viloyati Qibray tumanidagi*

*25-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Anotatsiya.** Mazkur metodik tavsiyada manaviyati boy, qalban yuksak, erkin fikrlovchi bolani tarbiyalashda nutq o'stiruvchi mashqlarning ahamiyati, bola nutqini o'stirishda o'qish darslarida qilinadigan ishlar haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** og'zaki nutq, yozma nutq, fikr, o'yin, ertak, hikoya, lug'at, so'z, qayta hikoya qilish, tez aytish.

**KIRISH.** Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan, barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta'lim berish mamlakatimizning ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Yangi O'zbekistonning maktab bitiruvchisi zamonaviy ko'nikmalarni egallagan, axborot texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo'lib shakllanishi zarur." [1]

Bu ezgu maqsadga erishish uchun boshlang'ich ta'lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o'taydi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida bolani qalban yuksak, ma'naviy boy, nutqi ravon, erkin fikrlovchi, mustaqil fikrga ega qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bolalarni kelajakda jahon standartlariga munosib kadr bo'lib yetishishida dastlabki poydevor, albatta, boshlang'ich sinf o'qituvchisi hisoblanadi. Har bir o'qituvchining dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo'ladi. Muomalaning asosiy vositasi - tildir! Shuning uchun o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishida, avvalo, ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yo'llarini izlab topishimiz kerak. [2]

**NAZARIY QISM.** Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o'qituvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko'rish, nutq buzulish sabablarini o'rganish lozim. Bola nutqidagi kamchiliklarni to'g'irlashda, ayniqsa, kitobning o'rnini beqiyosdir. Shuning uchun ham bola nutqi bilan ishlashda ko'proq o'qish darslarida mashg'ulotlar o'tkaziladi. Dastlab darslikdagi qisqa hikoya va qissalar, ertaklarni qayta hikoya qilish, she'rlarni yod olish bolalar nutqini

ravonlashtirib boradi. Ikki haftada bir marta o'tiladigan sinfdan tashqari o'qish darslarida tanlangan adabiyotlar ham nutqni rivojlantirib boradi. Bolalar nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining ahamiyati katta. Shuning uchun "O'qish kitobi" da "Ertaklar-yaxshilikka yetaklar" bo'limi berilgan. Unga kiritilgan ertaklar bolalarni obod - axloqqa o'rgatishi, ma'naviy juhatdan rivojlanishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Masalan, "Ur to'qmoq" ertagidagi dehqon va boy obrazlari o'quvchilar ongida yaxshi va yomondan nafratlanishi, undan yiroqlashish kerakligi haqida tasavvur hosil qiladi. Maqtanchoqlik, adolatchilik, ochko'zlik juda yomon odat ekanligi, saxiylik, do'stga mehribon bo'lish, rostgo'ylik insonning ma'naviy yuksalishga yordam berishi uqtiriladi. [3]

**AMALIY QISM.** Xalqimizda shunday naql bor: «Bola - shirin so'zning gadosi». Shunday ekan, o'qituvchi muomala jarayonida juda ehtiyotkor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham o'qituvchi har doim nutq madaniyatiga qat'iy e'tibor berishi, o'zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarini namuna sifatida namoyon etishi muhimdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining faoliyati faqat darslarini o'tish bilan cheklanmaydi, uning vazifasiga "Ifodali o'qish", "Yosh kitobxon" to'garaklarini tashkil etish hamda tanlovlarni tayyorlash va o'tkazish, o'quvchilarning nutq madaniyatini nazorat qilish, badiiy adabiyotlarni o'qish va ularni uyushtirish, bolalar va qo'g'irchoq teatri ishini yo'lga qo'yish kabi tadbirlar ham kiradi. Qilingan barcha tashkiliy ishlar bola nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. [4]

Bola atrofdagilarga o'z fikrini to'liq bayon qilib berishi o'qituvchining yutug'i hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda yod oldirish, so'zlarning ma'nosini tushuntirish yoki qayta hikoya qildirish kabi usullardan foydalanibgina qolmay, balki ular uchun qiziqarli faoliyat bo'lgan o'yinlardan foydalanish, ayniqsa, ko'zlangan maqsad, yuqori natijalarni qo'lga kiritishda katta yordam beradi. Chunki o'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. Bolalarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, o'yin dunyoni va o'zlikni anglashda, bog'lanishli nutqni o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Maktabga ilk qadamini o'ygan bola huddi o'zga dunyoga tushib qolgandek bo'ladi. O'zida bor bo'lgan jihatlarni ham namoyon qila olmasligi mumkin. O'qituvchi bolalarni mahorat bilan maktabga moslashtiradi. Bunda asosiy vosita ta'limiy o'yinlar hisoblanadi. O'qituvchi vaziyatdan kelib chiqib o'yinning to'g'ri turini tanlay olishi kerak.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish vositalaridan biri to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli o'quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar

o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qaerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va o'zaro bog'liqlikni yoritishga yo'naltirilishi lozim.[5]

**DIDAKTIK TAVSIYA.** O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi. Ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba'zan noto'g'ri yoki yuzasi tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab etmaydilar. Shuning uchun ham o'qituvchi yordamida asar o'rganiladi. Har bir qahramon karakteri savollar orqali ochib beriladi.[6] Qahramonlar salbiy yoki ijobiyga ajratiladi. Fikrlar umumiyashtirib, xulosa chiqariladi. O'quvchilarning nutqini mukammal rivojlantirish uchun o'qituvchi ko'p izlanishi va ko'p bilim malaka va ko'nikmaga ega bo'lmoq'i lozim. Zero, kelajagimiz bo'lmish bolalar o'z ustozlari bilan fahrlanib yurishsin!

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchilar va murabbiylarga yo'llagan tabrigidan. 29.09.2022. -Toshkent.
2. Q.Abdullaeva, K.Nazarov, Sh.Yo'ldosheva "Savod o'rgatish metodikasi" Toshkent."O'qituvchi",2019.
3. Abdullayeva Q. Birinchi sinfda nutq o'stirish. - Toshkent, "O'qituvchi", 1998.
4. 3. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., СЫМАНЮК Э.Э. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход: Учебное пособие. – М., 2005.
5. Ashrapova T., Odilova M. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 1984.
6. Xalimova Xoliniso Xasanboy qizi, Boshlang'ich sinflarda nutqni o'stirish metodlari – Guliston davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) yo'nalish kafedrasida dotsenti.